MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUJJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdhamovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1330
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamonov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afarovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'aforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	



RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

Muyassarzoda Fayziyeva

Mustaqil izlanuvchi, i.f.f.d., (PhD)

fayzievamuyassar87@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8019-6001

Annotatsiya. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kundan-kunga raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari oshib bormoqda, bu natija albatta davlat siyosati tomonidan mamlakatimizda raqamli moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish islohotlari samarasidir. Bu esa o'z navbatida raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholab borishni taqazo etadi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad - raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning zaruriyati va ahamiyatini yoritib berishdir. Buning uchun dinamik tahlil va statistik metodlardan foydalanildi, 2014-2024-yillar uchun moliya xizmatlariga tegishli raqamli ma'lumotlar tahlil qilindi. Natijada raqamli moliyaviy xizmatlarning joriy etilishi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik yo'nalishlarda jamiyat a'zolari uchun ijobiy natijalar berilishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: raqamli moliyaviy xizmatlar, raqamli texnologiyalar, samaradorlik, baholash, indeks.

Abstract. The indicators of the use of digital financial services by legal entities and individuals are increasing day by day, which is undoubtedly the result of the reforms implemented by the state policy aimed at developing digital financial technologies in our country. This, in turn, necessitates the continuous assessment of the effectiveness of digital financial services. The purpose of this study is to highlight the necessity and importance of assessing the effectiveness of digital financial services. For this purpose, dynamic analysis and statistical methods were used, and digital data related to financial services for the period 2014–2024 were analyzed. As a result, it was determined that the implementation of digital financial services yields positive outcomes for members of society in social, economic, and technological aspects.

Key words: digital financial services, digital technologies, efficiency, assessment, index.

Аннотация. Показатели использования цифровых финансовых услуг юридическими и физическими лицами растут с каждым днём, что, безусловно, является результатом реформ, проводимых государственной политикой по развитию цифровых финансовых технологий в нашей стране. Это, в свою очередь, требует постоянной оценки эффективности цифровых финансовых услуг. Цель данного исследования — раскрыть необходимость и значимость оценки эффективности цифровых финансовых услуг. Для этого были использованы методы динамического и статистического анализа, проанализированы цифровые данные, относящиеся к финансовым услугам за период 2014–2024 годов. В результате установлено, что внедрение цифровых финансовых услуг приносит положительные результаты для членов общества в социальном, экономическом и технологическом направлениях.

Ключевые слова: цифровые финансовые услуги, цифровые технологии, эффективность, оценка, индекс.

KIRISH

COVID-19 pandemiyasi davridan boshlab deyarli barcha sohalarda raqamli transformatsiyaga o'tish jarayonlari boshlandi va hozirda bu jarayon tizimli amalga oshirilmoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni muddatsiz bo'lib, bu jarayon doimiy davom etadi. Biz kundalik hayotimizda eng ko'p duch keladigan va ko'p murojaat etadigan sohalardan biri bu moliyaviy soha bo'lib, moliyaviy xizmatlarning raqamlashtirilishi ko'plab iste'molchilarning vaqti va pulini iqtisod qilishga sabab bo'lmoqda.

Mahalliy va xorijiy moliyaviy tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilgan ko'plab raqamli moliyaviy xizmatlar mavjud bo'lib, ularni turlari tez sur'atlarda kengaymoqda, jumladan:

- 1) to'lov va hisob-kitob xizmatlari: mobil banking, elektron hamyonlar, milliy to'lov tizimlari va xalqaro to'lov tizimlari;
- 2) QR-kod orqali to'lovlar: pul o'tkazmalari va transchegaraviy xizmatlar, xalqaro pul o'tkazmalari va raqamli remittans platformalari;



3) kreditlash va investitsiya xizmatlari: onlayn kreditlash, kraudfanding va P2P kreditlash platformalari va raqamli investitsiya platformalari;

4) sug'urta xizmatlari: onlayn sug'urta;

5) FinTech asosidagi xizmatlar:

- Big Data asosida kredit reytinglarini aniqlash;
- AI va Machine Learning asosida risklarni baholash;
- blockchain asosida smart-shartnomalar;
- biometriya asosida identifikatsiya (Face ID, Touch ID).

Moliyaviy tashkilotlar tomonidan mijozlarga taklif etilayotgan raqamli moliyaviy xizmatlar raqamli moliyaviy texnologiyalar (Fintech) asosida taqdim etilmoqda.

Raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etilishi, rivojlanishi va takomillashuvi raqamli texnologiyalarni rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, raqamli texnologiyalarni rivojlanishi esa jamiyatda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi bilan belgilanadi.

Jahon miqyosida raqamli iqtisodiyot, raqamli hukumat, raqamli davlat xizmatlari, raqamli moliyaviy xizmatlar, raqamli infratuzilma, raqamli kirish va undan foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirishda mamlakatlarning davlat siyosati mavjud bo'lib, shular asosida mamlakatlarning xalqaro raqamli integratsiya darajalarini aniqlaydigan turli xil indekslar ishlab chiqilgan, xususan: Digital Economy and Society Index (DESI), Networked Readiness Index (NRI), Digital Adoption Index (DAI), Global Connectivity Index (GCI), Global Digitalization Index (GDI), E-Government Development Index (EGDI), Global Innovation Index (GII) va boshqalar.

Yuqorida nomlari keltirilgan xalqaro raqamli integratsiya darajalarini baholaydigan indekslarning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi sohalar, yo'nalishlar va omillarni quyi bosqichdan boshlab yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida raqamli moliyaviy xizmatlar sohasi ham tubdan rivojlanib kelmoqda, esa bu o'z navbatida sohani baholashni ham taqazo etadi. Shu sababdan xalqaro raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning bir qator zamonaviy yondashuvlari ishlab chiqilgan, jumladan: Digital Financial Inclusion Index (DFII), Global Fintech Index (GFI), Financial Access Survey (FAS) so'rovnoma, World Bank Global Findex va boshqalardir.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad: raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning zaruriyati va ahamiyatini yoritib berishdir.

Ushbu maqola 4 bo'limdan iborat bo'lib, ular: kirish, metodologiya, natijalar va xulosa bo'limlaridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli moliyaviy xizmatlar - bu moliyaviy tashkilotlar yoki ularning agenti tomonidan iste'molchilarga masofaviy xizmat ko'rsatish tizimidan foydalangan holda ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlardir. Raqamli xizmatlar mijozlarni mustaqil ro'yxatga olish, omonatlarga pul mablag'larini jalb qilish va ular bo'yicha hisoblangan foiz to'lovlarini mijozning bank hisobvarag'iga o'tkazib berish, kreditlar taqdim etish, bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, shu jumladan hisobvaraqlar bo'yicha pul mablag'lari aylanmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, pul o'tkazmalarini amalga oshirish, mahsulotlar (xizmatlar) uchun to'lovlarni kontaktsiz hisob-kitob qilish hamda boshqa moliyaviy xizmatlarni o'z ichiga oladi (1).

Raqamli moliyaviy texnologiyalar (Fintech) - bu bank va moliyaviy xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish uchun moliya sohasida qo'llaniladigan «katta ma'lumotlar» (Big Data), sun'iy intellekt va mashinali o'qitish, robotlashtirish, blokcheyn, bulutli texnologiyalar, biometrik tizimlar hamda boshqa innovatsion texnologiyalar asosida ko'rsatish jarayonidir (2).

Raqamli iqtisodiyot - bu raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi. Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi (3).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida dinamik tahlil va statistik metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida to'plandi. Raqamli moliyaviy



xizmatlar samaradorligini baholash zaruriyati va ahamiyatini asoslashda 2014-2024-yillar davri uchun moliya xizmatlarining yalpi ichki maxsulotdagi (YalIM) ulushi, MUNIS tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi, masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni hamda to'lov terminallari orqali milliy valyutadagi tranzaksiyalar summasi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli moliyaviy xizmatlar sohasi rivojlanishini "raqamlar" bilan ko'rsatish hamda bu rivojlanish darajasiga ko'ra strategik to'g'ri qarorlar va masalalarga yechimlar topishda raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini muntazam va belgilangan davrlarda baholab borilishidir. Natijada mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini baholashga ham erishiladi.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, xususan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi "Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi PQ-381-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi "Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 373-sonli qarori va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasidagi raqamli iqtisodiyot sohasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinganda, raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashga doir aniq hujjat topilmadi. Vaholanki, raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash – bu ularning barqaror, xavfsiz va samarali rivojlanishini ta'minlashda asosiy omildir.

Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir, ular:

1) ijtimoiy ahamiyati:

- moliyaviy inkluziyani oshishi, bunda raqamli xizmatlarni keng joriy etilishi aholining bank xizmatlariga kirish imkoniyatini oshiradi, shu bilan birga bank tizimidan uzoq bo'lgan hududlarda yashovchi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashni amalga oshirish asosida bu xizmatlarni aholining keng qatlamlariga yetib borish darajasi o'rganiladi;

- ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlanishi, bunda raqamli moliyaviy xizmatlarni baholash yordamida olis hududlarda istiqomat qiluvchi aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishdagi farqliklari, misol uchun gender farqlari, ta'lim ma'lumotlariga ko'ra farqlari, yosh guruhlari o'rtasidagi farqlar va/yoki hududlar o'rtasidagi farqlar aniqlanadi. Bu esa hukumat tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning ta'sir doirasini aniqlashga, davlat siyosatini ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslangan holda shakllantirishga yordam beradi;

- moliyaviy savodxonlikni oshirilishi, bunda raqamli xizmatlar samaradorligini baholash natijasida aholining qaysi guruhlari qaysi moliyaviy xizmatlardan foydalanayotgani va/yoki foydalanmayotgani, qaysi raqamli xizmatlardan foydalanishda murakkabliklar mavjudligiga ko'ra keng qamrovli moliyaviy savodxonlik dasturlari va chora-tadbirlari ishlab chiqiladi;

- kiberxavfsizlik bo'yicha aholining ogohlik darajasini oshirilishi, bunda aholi duch kelishi mumkin bo'lgan turli xil fribgarlik holatlari, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlanishi, noqonuniy tranzaksiyalar kabi xavflarni aniqlashda va oldini olishda davlat siyosatini ishlab chiqilishi hamda tegishli tashkilotlar tomonidan chora-tadbirlarni belgilanishiga e'tibor qaratiladi.



2) iqtisodiy ahamiyati:

- milliy iqtisodiyotga qo'shiladigan hissani ortishi, bunda raqamli moliyaviy xizmatlarni umumiy xizmatlar sohasi tarkibiga kirgani holda mamlakat yalpi ichki maxsulotdagi ulushi ortadi, raqamli maxsulotlar to'plami va turlarini kengayishi hisobiga soliq tushumlari hajmi ko'payadi, shu bilan birga yangi ish o'rinlari yaratiladi, bandlik va aholi farovonligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillar soni hamda ta'siri kamayadi;

- pul aylanmasining tezlashishi, bunda "foydalanuvchi istalgan joydan, istalgan vaqtda to'lovni amalga oshira oladi, barcha operatsiyalar raqamli izga ega bo'ladi, bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish, soliq tushumlarini oshirishga xizmat qiladi, zamonaviy shifrlash texnologiyalari yordamida tranzaksiyalarni himoyalash imkoniyati mavjud bo'lgan holda, naqd pulga ishlov berish, tashish va saqlash xarajatlari kamayadi (4)", ya'ni naqd pulsiz iqtisodiyot ulushi oshadi;

- tijorat banklari samaradorligi va raqobatbardoshligini kuchayishi, bunda "tijorat banklarida moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish texnologik innovatsiyalar, mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, mijozlarga yo'naltirish, xatarlarni boshqarish, iste'dodlarni rivojlantirish va barqaror rivojlanishni o'z ichiga olgan strategik va yaxlit yondashuvni talab qiladi. Ushbu strategiyalarni qo'llash orqali tijorat banklari o'zlarining raqobatbardosh pozitsiyalarini mustahkamlashlari, mijozlar ehtiyojini qondirishlari va doimiy o'zgaruvchan moliyaviy landshaftda barqaror o'sishni ta'minlashlari mumkin (5).


3) texnologik ahamiyati:

- innovatsiyalarni rag'batlantirilishi, bunda "innovatsiyalar joriy etilishi jarayonida global moliyaviy bozorlar integratsiyasi kuchayadi, kapital oqimlarining erkinlashuvi va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi moliyaviy sektorning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlaydi, moliyaviy texnologiyalarning kelajakda jadal rivojlanishi nafaqat moliyaviy xizmatlarni ommaviylashtirish, balki iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirishda muhim omil bo'lib qoladi" (6);

- FinTex ekotizimining kengayishi, bunda "moliyaviy xizmatlar endilikda faqat tijorat banklari doirasida emas, balki mobil operatorlar, yirik texnologik kompaniyalar, IT-industriya, investorlar va regulyatorlar o'zaro hamkorligi asosida shakllanadi. Bunday ekotizimning kengayishi raqobatni kuchaytiradi, moliyaviy xizmatlarning turlarini kengaytiradi, innovatsion mahsulotlar yaratishga sharoit hozirlaydi. Natijada texnologik integratsiya asosida xizmatlarning tezligi, xavfsizligi va qulayligi oshib, moliya bozorining barqarorligi va samaradorligi ta'minlanadi" (7).

- mahalliy startaplar va texnologik kompaniyalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratilishi, bunda "moliyaviy texnologiyalar (FinTech) yo'nalishida faoliyat yurituvchi startap-loyihalar o'z innovatsion yechimlarini tijorat banklariga taqdim etadi (8).


Quyida, iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan moliya xizmatlarining YalMdagi ulushi tahlili keltirilgan. Unga ko'ra, 2014–2016-yillar davomida moliya xizmatlarining YalM dagi ulushi 6 728,2 mlrd.so'mdan 9 898,4 mlrd.so'mgacha o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yildan 2024-yilgacha 15 023,8 mlrd.so'mdan 134 920,4 mlrd.so'mgacha yuqori o'sish sur'atlariga erishilgan (1-rasm).



1-rasm. YalM dagi xizmatlar sohasi ulushining moliya xizmatlariga tegishli hajmi (mlrd. so'm)

Manba: (9)

Quyida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali (MUNIS) amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi to'g'risidagi tahliliy ma'lumot keltirilgan. Unga ko'ra, amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi o'rtasidagi o'sish farqi 2017-yildan 2019-yilgacha 385 % ni va 2020-yildan 2023-yilgacha 313 % ni tashkil etgan (2-rasm).




2-rasm. 2017-2023-yillarda Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali (MUNIS) amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi to'g'risida ma'lumot (mlrd.so'm)

Manba: (9)

Raqamli moliyaviy xizmatlar deganda asosan masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlar tushunilib, masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni oshgani sari, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'lami kengayadi, bu esa o'z navbatida raqamli moliyaviy xizmatlarning samaradorligini doimiy baholab borish va baholash natijalariga ko'ra to'g'ri qarorlar qabul qilishni taqozo etadi.

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni, xususan, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslarning soni davomli oshib bormoqda. Misol uchun, 2018-2020-yillarda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonida 164 % ga o'sish ko'rsatkichlari qayd etilgan bo'lsa, 2021-2024-yillarda esa oraliq o'sish 262 % ni tashkil etgan (3-rasm).




3-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni (2018-2024-yillar)

Manba: (9)



Mamlakatimizda raqamli moliyaviy xizmatlar ko'lamining kengayishi ta'sirida naqd pulsiz to'lovlar ulushi ortib bormoqda. Misol uchun, to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan milliy valyutadagi tranzaksiyalar summasi to'g'risidagi 2017–2024-yillardagi ma'lumotlari tahlil etilganda, o'tgan davr mobaynida 617 % o'sishga erishilgani aniqlandi (4-rasm).



4-rasm. 2017–2024-yillarda to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan milliy tranzaksiyalar summasi (mln. so'mda)

Manba: (9)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli moliyaviy xizmatlarni moliyaviy tashkilotlar, xususan tijorat banklari faoliyatida keng joriy etilishi yaqin va uzoq hududlarda istiqomat qiluvchi aholining masofadan turib raqamli xizmatlardan keng foydalanishiga ijobiy ta'sir etadi. Bunda ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik yo'nalishlarda ijobiy natijalarga erishiladi, xususan: moliyaviy inklyuziyani oshishi, ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlanishi, aholi o'rtasida moliyaviy va kiberxavfsizlik savodxonligi darajasini oshishi, milliy iqtisodiyotga qo'shiladigan hissani ortishi (mamlakat yalpi ichki maxsulotida moliyaviy xizmatlar ulushi hajmini o'sishi, soliq tushumlari hajmini ko'payishi, yangi ish o'rinlarini yaratilishi va h.k.) pul aylanmasining tezlashishi, tijorat banklari samaradorligi va raqobatbardoshligini kuchayishi, innovatsiyalarni rag'batlantirilishi, FinTex ekotizimini kengayishi hamda mahalliy startaplar va texnologik kompaniyalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratilishi va boshqalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Raqamli moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish standartlari, https://cbu.uz/upload/iblock/f0e/28_4-Boshqaruv-qaroriga-ilova-Raqamli-khizmatlar-standartlari.pdf
2. Ж.Б.Гаипов. Цифровое банковое дело. (Учебное пособие) –Т.: « », 2023, – 180 с.
3. Ayupov R.H., Boltaboeva G.R.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.
4. Abdusattarovich, U. U. (2025). RAQAMLI TO'LOVLAR VA ELEKTRON PUL AYLANISHI: YANGI IQTISODIY BOSQICH. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (11), 741-747.
5. Roziqov, B. B. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI. «Ёш олимлар ахборотномаси»–«Вестник молодых ученых», 1(1), 117-122.
6. Berdikulov Jurabek Rayimkulovich, Qarshiyev Avazbek Sa'dullayevich. (2024). MOLIVAVIY INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. IQRO INDEXING, 12(02), 6-11. <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/6732>
7. Голикова, А. (2021). Экосистема финтеха Республики Беларусь: основные участники и особенности развития.
8. Startaplar va FinTech kompaniyalari tijorat banklari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda, <https://gov.uz/oz/digital/news/view/37370>
9. M.X.Fayziyeva, "Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligini baholash" mavzusidagi dissertatsiya avtoreferati (PhD), <https://library.ziyouet.uz/ru/book/139135>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>